



# 2018 yilning yanvar-may oyida QURILISH ISHLARI

### RAQAMLAR:

Qurilish-montaj ishlari hajmi - **2905,8 mlrd. so'mni** yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **111,7 %ni** tashkil etdi;

Yirik qurilish-pudrat tashkilotlarining jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi – **32,7 %**


Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi – **43,7 %**

Qurilishda norasmiy sektorning ulushi – **23,6 %**

Joriy yilning yanvar-may oylarida shaharda 2905,8 mlrd.so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 111,7 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 950,6 mlrd.so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 129,4 %ni tashkil qilib, o'tgan oydagi o'sish sur'atiga nisbatan 2,5 % punktga kamaydi.

Mos ravishda, kichik korxonalar va mikrofirmalar 1269,9 mlrd. so'm yoki 105,3 %ni hamda norasmiy sektor 685,3 mlrd.so'm yoki 104,6 %ni tashkil etdi.






# Tumanlar kesimida qurilish ishlari hajmi

2018 yilning yanvar-may oylarida bajarilgan qurilish ishlar hajmi

Tumanlar	Jami	
	mlrd. so'm	o'sish sur'ati, %da
<b>Toshkent shahar</b>	<b>2905,8</b>	<b>111,7</b>
tumanlar:		
Bektemir	74,7	112,3
Mirzo Ulug'bek	405,5	109,6
Mirobod	521,8	113,6
Olmazor	201,2	114,4
Sergeli	188,0	113,4
Uchtepa	105,6	90,6
Chilonzor	398,8	114,9
Shayxontoxur	247,0	115,1
Yunusobod	280,5	113,3
Yakkasaroy	250,5	110,0
Yashnobod	232,0	110,1





## Tumanlar kesimida qurilish ishlari hajmi (davomi)

Tumanlar kesimida qurilish ishlarining katta qismi Mirobod tumanida bajarilgan bo'lib, shaharda bajarilgan jami qurilish ishlarining 18,0%ini tashkil etdi, Mirzo Ulug'bek tumanida bajarilgan qurilish ishlari esa 14,0%ni, Chilonzor tumanida 13,7%, Yunusobod tumanida 9,7% va Yakkasaroy tumanida 8,6 %ni tashkil etdi.



Shaharda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo'yicha past ko'rsatkichlar: Bektemir tumanida bu ko'rsatkich eng past 2,6 %ni tashkil etdi. Shuningdek, Uchtepa va Sergeli tumanlarida ushbu ko'rsatkich mos ravishda 3,6 % va 6,5 % ni tashkil

etgan bo'lsa, Olmazor tumanida 6,9 %ni tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Katta hajmda amalga oshirilayotga qurilish ishlariga quyidagilarni keltirish mumkin:

- Chilonzor tumanida Iqtisodiyot Vazirligining rekonstruksiya qilinishi;

- Shaharda ko'priklar va temir yo'l halqasining qurilishi,

- Sergeli tumanida – turar joylar va 2-aeroportni rekonstruksiya qilish;



- Yakkasaroy tumanida - Toshkent pedagogika institutini rekonstruksiya qilish;


- Chilonzor tumanida - milliy bog'ni rekonstruksiya qilish;

- Sergeli tumani ko'p qavatli arzonlashtirilgan uy-joylarni qurilishi;


- Chilonzor tumanida "Humo" sport saroyining qurilishi.



## Tumanlar bo'yicha jami qurilish ishlari hajmi, %da (davomi)



## Qurilish ishlari hajmi tarkibi






## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi, ya'ni 65,2%i qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Fuqarolik obyektlari qurilishi va ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi ham o'tgan yilga nisbatan ko'paygan holda jamiga nisbatan 17,6%ni tashkil qildi.

2017-2018 yillarda Toshkent shahri bo'yicha qurilish ishlari hajmining sektorlari bo'yicha ulushlarining o'zgarish dinamikasi, %da



Toshkent shahar statistika boshqarmasi  
Investitsiya va qurilish statistikasi  
bo'limi

Nashr uchun mas'ul:  
Aloqa telefoni:

**Sh.Yarashov**  
**(0371) 230-88-18**